

ADVOKATNING HUQUQIY MAQOMI VA UNING HIMOYA FUNKSIYALARI

Isroilov Ikromjon Odilovich

O‘zagrosug‘urta” AJ Shartnomaviy huquqiy va talabnoma –
da’vo ishlarini yuritish departamenti yetakchi yuristkonsulti
ikromjonodilovich1982@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqolada advokatning huquqiy maqomi va uning himoya funksiyalari tahlil qilinadi, shuningdek, hozirgi tahrirdagi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun va shu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qo‘llaniladi. Advokatura — bu huquqiy yordam ko‘rsatish, sudda himoya qilish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan mustaqil va professional faoliyat yurituvchi advokatlar tizimidir. Maqola, advokaturaning jamiyatdagi roli va uning huquqiy tabiatini o‘rganib, bu institutning davlat tizimidagi o‘rni va ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Advokatura, huquqiy yordam, sud, himoya, huquqiy tabiati, mustaqillik, yuridik yordam, huquqiy himoya, axloqiy me‘yorlar, huquqiy tizim.

Advokatlik faoliyati mustaqilligi deganda, advokatlarning qonuniy faoliyatiga aralashish yoki to‘sqinlik qilishning oldini olishga qaratilgan kafolatlar yig‘indisi tushuniladi. Advokatlik faoliyati samaradorligining asosiy mezonini uning mustaqilligi hisoblanadi. Biroq mustaqillikning turli jihatlari bor. Advokatlar faqat protsessning boshqa ishtirokchilaridan, advokatlar faoliyatini boshqaradigan organdan mustaqil bo‘libgina qolmay, balki o‘z himoyasi ostidagi shaxs bilan ishlashiga aralashishi mumkin bo‘lgan har bir kishidan har qanday vaziyatda mustaqil bo‘lishi kerak.

Advokatning mustaqilligi – advokat maqomini olgan, qonun darajasida ta‘minlangan shaxslarning huquqiy holati, bu ularning malakali yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha qonuniy faoliyatiga aralashish va to‘sqinlik qilish imkoniyatini istisno qiladi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yetarli darajada ta‘minlash uchun barcha insonlar mustaqil advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordamdan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Mustaqillik advokatning o‘ziga yuklatilgan vazifalarni jasorat bilan va ongli ravishda bajarishi jarayonida ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati hamda boshqa shaxslar tomonidan uning ishlariga aralashmaslikni nazarda tutadi. Advokatlar mustaqilligining kafolatlari uchun sud protsesslarining barcha jarayonlarida o‘z himoyasi ostidagi shaxs manfaatlarini himoya qiluvchi advokatlarga nisbatan qo‘llanadigan immunitet va imtiyozlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Advokat imtiyozi – sud protsesslarida advokatning mustaqilligini ta'minlaydigan aniq kafolatlardan biridir.

Advokatlar o'z kasbiy majburiyatlarini hech qanday tazyiqlarsiz, to'siqlarsiz, bezovta qilish va noo'rin aralashuvlarsiz amalga oshirishlari kerak; o'z mijozlariga erkin maslahat berish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak; o'z kasbiy majburiyatlarini har qanday tazyiq yoki sanksiyalardan, qo'rquvdan xoli bajarishlari kerak.

Shuni e'tiborga olish kerakki, advokatlik faoliyati mustaqilligini yaratish uchun advokatning mustaqilligi talab qilinadi. Advokatura institutining mustaqilligi, birinchi navbatda, advokatlik jamiyatining advokatlik faoliyatini amalga oshirish qoidalarini, ularni buzganlik uchun sanksiyalarni mustaqil ravishda belgilash, shuningdek, uning a'zolarini javobgarlikka tortish masalalarini bevosita hal qilish imkoniyatlarida namoyon bo'lishi kerak. Asosiy tamoyillar advokatning "o'z manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi mustaqil professional uyushmalarning yaratuvchisi va a'zosi bo'lish" huquqini belgilaydi. Shu bilan birga, bunday tashkilotlarning ijro etuvchi organi a'zolari tomonidan saylanishi va o'z vazifalarini "tashqaridan aralashuvsiz" bajarishi kerak¹.

Advokatning protsessual mustaqilligi deganda, ishda advokat sifatida ishtirok etuvchi advokatlar o'z himoyasi ostidagi shaxsni jinoiy protsessda samarali himoya qilish, tergov, prokuratura va sud organlarining pozitsiyasidan qat'i nazar, sudda dalillarni yig'ish va taqdim etish, shuningdek, davlat organlari tomonidan aniq jinoyat ishlari bo'yicha ularning faoliyatiga har qanday aralashuvga duch kelmaslik tushuniladi.

Advokatlarning kasbiy mustaqilligini ta'minlash, shu jumladan, jinoiy huquqbuzarliklarni sodir etishda ayblangan shaxslarni himoya qilishni ta'minlash vakolatlarni talab qiluvchi bir qator qoidalar va prinsiplarni nazarda tutadi. Xususan, advokatlarning roli bo'yicha asosiy tamoyillar davlat hukumatlariga advokatlarni ta'minlash uchun ma'lum vazifalarni yuklaydi.

O'zbekiston qonunchiligi asosan xalqaro standartlarga mos keladigan qator tamoyillarni o'z ichiga oladi. Masalan, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasida himoyachining jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida ega bo'lgan huquqlarini sanab o'tilgan. Biroq ayrim xalqaro tashkilotlar qonun hujjatlarining qoidalari advokatlarning funksional mustaqilligini yetarli darajada kafolatlamasligini ta'kidlamoqda².

Masalan, advokatlar doim ham tahdid, to'siq, qo'rqitish yoki aralashuvlardan xoli muhitda o'z kasbiy vazifalarini bajara olmaydilar, degan xulosaga kelish mumkin. Advokatlar palatasi uning a'zolari ijrochining aralashuvidan yetarli darajada himoyalanihini ta'minlashi lozim

¹ Смоленский М. Б. Адвокатская деятельность и адвокатура Российской Федерации (адвокатское право). Ростов н/Д : Феникс, 2007. С. 8.

² UNODC Advokatlar mustaqilligi masalalari va himoya huquqi: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini xalqaro normalar va prinsiplarga muvofiq isloh qilish bo'yicha tavsiyalar. Tashkent 2020./https://www.unodc.org/documents/centralasia//2020/Independence_paper_24.03.20.pdf

bo'lsa-da, amalda palata, advokatlarning fikricha, ijrochi tomonidan "advokatlarga, ayniqsa, o'z mijozlarining huquqlarini himoya qilishda faol bo'lganlarga bosim o'tkazish vositasi sifatida"³ ko'rib chiqiladi.

Advokaturaning jamiyat institutlari muvozanatidagi roli juda muhim. Bu muvozanatni buzishni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Bu qadriyat huquq tizimining asosi ekanini unutmash kerak⁴.

Advokat faoliyatining mustaqilligi barcha darajalarida namoyon bo'lishi zarur. Darhaqiqat, davlat va advokatura instituti o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda individual advokatning mustaqillik darajasi ochib beriladi. Yillar davomida ishlab chiqilgan advokatlarning mustaqilligini ta'minlash va kafolatlash usullari mavjud. An'anaga ko'ra, advokatlar advokatura va ularning kasbiy tashkiloti – Advokatlar palatasi vakillari bo'lib, davlat hokimiyati organlaridan mustaqil organdir (advokat uchun advokatura a'zoligi majburiydir). Advokaturaning mustaqilligi hukumat tomonidan kafolatlanadi, advokatura esa fuqarolarning manfaatlarini himoya qiladi. Ammo boshqa tomondan, mustaqillikning bu barcha elementlari nafaqat advokatura uchun, balki jamiyat uchun xizmat qilishi kerak. Mustaqillik – jasoratli va professional vakillik kafolati. Ushbu ijtimoiy shartnomadagi eng muhim vazifa fuqarolarga yuqori sifatli yuridik xizmatlarni ko'rsatishdir. Shuning uchun advokatlik faoliyatining mustaqilligi to'liq cheksiz emas; aslida advokatura va hukumat o'rtasidagi munosabatlar juda nozik masala bo'lib, mustaqillik ta'minlanishi bilan birga, advokatlarning kasbiy vazifalarini to'g'ri bajarishi ustidan ijtimoiy nazoratni ham ko'zda tutadigan tarzda tashkil qilinishi kerak⁵. Shubhasiz, advokatlik kasb faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan uning huquqiy ta'minotiga bog'liq. Faqat kuchli, mustaqil advokatlik bilan inson huquqlari va erkinliklari himoyasini ta'minlash mumkin.

Advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti aktlarining amaliyotda qo'llanishi jarayonida paydo bo'layotgan ayrim muammolar, qonun hujjatlaridagi, xususan "Advokatura to'g'risida" va "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunlarda bir-birini takrorlovchi yoki deklarativ xarakterdagi normalarning mavjudligi, shuningdek, taraqqiyotning hozirgi bosqichida ro'y berayotgan o'zgarishlar, mamlakatimizda barcha sohalarni xalqaro hamjamiyat bilan integrallashuvi va liberallashuvi, ijtimoiy jarayonlarning chuqurlashuvi ham O'zbekiston Respublikasida advokatura tizimini isloh qilish, sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

³ Международная комиссия юристов, Независимость юридической профессии в Центральной Азии, 2013,

⁴ O'. Xolmirzayev. Advokatlarning telefonini tinglash haqida qonuniy o'zgartirish taklif qilindi. Bu qanchalik to'g'ri? Mutaxassis javob beradi. / <https://daryo.uz/k/2020/03/27/advokatlarning-telefonini-tinglash-haqida-qonuniy-ozgartirish-taklif-qilindi-bu-qanchaliktogri-mutaxassis-javob-beradi>

⁵ Bepul yuridik yordam olish huquqini qanday kafolatlash mumkin? Lukash Boyarski, Inson huquqlari bo'yicha Xelsinki jamg'armasi eksperti // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30199918

Qonunchiligimizda advokatlik faoliyatiga aralashish, to'sqinlik qilish, bosim o'tkazish taqiqlangan bo'lib, uning huquqiy oqibatlari haqida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda aytib o'tilgan⁶. Lekin jinoyat kodeksiga advokatlik faoliyatiga aralashganlik, to'sqinlik qilganlik va bosim o'tkazganlik uchun jazo turlari kiritilmagan.

Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan unga tazyiq o'tkazilgan hollarda, u himoyaning ichki mexa nizmlaridan foydalanish – Advokatlar palatasiga va uning hududiy boshqarmalariga murojaat qilishdan tashqari, BMTning sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisiga⁷ xabar bilan murojaat qilishga, va unda huquqlari buzilishi holatlarini bayon qilishga haqli. Ma'ruzachi, o'z navbatida, davlatga u yoki bu advokat huquqlarining buzilishi sabablari bo'yicha savol bilan murojaat qilishga va ushbu huquqbuzarliklarni to'xtatish haqida iltimosnoma kiritishga haqli. Qarorgohi Jenevada joylashgan Yuristlar xalqaro komissiyasi ham advokatlarni himoya qilishga qodir tashkilotdir. Zarur holatlarda u davlatning tegishli muassasalariga advokatga tazyiq o'tkazishni to'xtatish haqidagi iltimos bilan murojaat qiladi, shuningdek, advokatga nisbatan sud xatti-harakatlari olib borilayotgan bo'lsa, sudga o'z kuzatuvchilarini yuboradi. Sud ishini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha YXK, shuningdek, BMTning IXKga davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlariga qanchalik rioya qilayotgani bo'yicha muqobil hisobotni tayyorlashga va yo'llashga haqlidir⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Инагамова М.М. Сифатли таълим тизимини ривожлантиришнинг баъзи стратегик асослари //Республикаси ИИБ Малака ошириш институти ахборотномаси. Т.– 2023. № 3. 63-70 б.
2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ikkinchi bo'lim. inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar 29-modda // <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. 5-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son
5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli Qonuniga asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y.,

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi, 197¹-modda. <https://lex.uz/acts/-97664>

⁷ BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasida maxsus tartibot sifatida amal qiladi.

⁸ Суд ишени адолатли кўриб чиқишга оид халқаро стандартлар ва Ўзбекистон Республикаси жиноят процесси. ISBN: 92-9037-157-9 Женева, 2011 йил.

03/18/497/2044-son “Advokatura to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni 10-modda

6.“Advokatura to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni 6-modda

<https://lex.uz/ru/docs/-54503#-55655>